https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Filologiya fanlari - 10.00.00

Saidjonova Dildora Mirhabib qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz filologiyasi faculteti 2-bosqich talabasi

Email: saidjonovadildora882@.com

Tel: +998940508626

TIL VA MADANIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABAT

Annotatsiya. Mazkur maqolada til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqa va bog'liqlik lingvomadaniyatshunoslik sohasi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Tilshunos olimlarning fikrlari asosida til va madaniyatning o'zaro ta'siri, tilning madaniy kontekstdagi roli hamda lingvistik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot davomida til faqatgina insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi emas, balki madaniyatni saqlash va uni avlodlarga yetkazishda ham asosiy omil deb hisoblanishi kengroq yoritib beriladi. Bundan tashqari, til xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolada til birliklari orqali madaniy ma'no va tushunchalarning shakllanishi, ularning avloddan avlodga uzatilish mexanizmlari yoritiladi. Shu bilan birga, tilning madaniyatni saqlash va rivojlantirishdagi roli, nutq jarayonida madaniy kontekstning ahamiyati misollar orqali asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Til, madaniyat, lingvomadaniyatshunoslik, madaniy kontekst, dunyoqarash, aloqa vositasi.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ЯЗЫКОМ И КУЛЬТУРОЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается взаимодействие и связь языка и культуры с точки зрения лингвокультурологии. Опираясь на взгляды лингвистов, анализируется взаимодействие языка и культуры, роль языка в культурном контексте и лингвистические аспекты. В исследовании также подчеркивается, что язык является не только средством общения между людьми, но и ключевым фактором сохранения культуры и её передачи

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

будущим поколениям. Кроме того, язык рассматривается как сотциокультурный явление, отражающий историческую память, мировоззрение, ценности и национальную самобытность. В данной статье освещается процесс формирования культурных значений и понятий посредством языковых единиц, а также механизмы их передачи от поколения к поколению. Наряду с этим, на основе примеров обосновывается роль языка в сохранении и развитии культуры, а также важность культурного контекста в процессе речевой коммуникации.

Ключевые слова: язык, культура, лингвокультурология, культурный контекст, мировоззрение, средство коммуникации.

THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE

Abstract. This article studies the interaction between language and culture from the perspective of linguocultural studies. Based on the views of linguists, the relationship between language and culture, the role of language in the cultural context, and linguistic aspects are analyzed. The study also highlights that language is not only a means of communication among people, but also a key factor in preserving culture and transmitting it to the future generation. In addition, language is viewed as a socio-cultural phenomenon that reflects historical memory, worldview, values of a nation and national identity. This article examines the formation of cultural meanings and concepts through linguistic units, as well as the mechanisms by which they are transmitted from generation to generation. Furthermore, the role of language in preserving and developing culture is substantiated through examples, highlighting the importance of cultural context in the process of verbal communication.

Keywords. Language, culture, linguocultural studies, cultural context, perspective, means of communication.

Kirish.

Til - inson tafakkurining mahsuli bo’lib, u jamiyatning madaniyati va qadriyatlarini aks ettiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Til va madaniyat inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, ular bir-biriga chuqur ta'sir qiladi va o'zaro bog'langan hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Til insonlar o'rtasida axborot almashinuvi va muloqot vositasi sifatida xizmat qilsa, madaniyat jamiyatning qadriyatlari, urf-odatlari, an'analari va dunyoqarashini shakllantiradi. Shu bois, til nafaqat fikr va hissiyotlarni ifodalash vositasi, balki madaniyatni saqlash va avloddan avlodga yetkazish vositasi sifatida ham muhim rol o'ynaydi.

Lingvistlar va antropologlar orasida keng tarqalgan fikr shundan iboratki, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy identitetini shakllantiradi. Masalan, turli xalqlarga tegishli iboralar, maqollar va metaforalar ularning qadriyatlari, urf-oadatlari va hayotiy tajribalarini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, til va madaniyatni o'rganish ham lingvistik, ham sotsiokultural va psixologik jihatlarni ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Madaniyat tushunchasi tilshunoslik sohasidagi muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Lingvokulturologiya - til va madaniyat munosabatlarini o'rganadigan ilmiy soha bo'lib, til shakllari va madaniy qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tahlil qiladi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi g'oyasi tilshunoslik va til falsafasi tarixda ham katta o'rin egallaydi. Bu borada ko'plab tilshunos olimlar til va madaniyat tushunchalari bir-biriga qanchalik yaqinligini ko'p ta'kidlashgan. V. V. Vorobyevning yozishicha, "bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o'rganadigan fan desak ham bo'ladi".

Kler Kramsch til va madaniyat tushunchalarini shunday ta'riflaydi: "Til - bu faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki madaniyatni ifodalash va uni avlodlarga yetkazishda eng muhim vosita. Madaniyat tilning shakllanishi va qo'llanilishida hal qiluvchi omil hisoblanadi". [1] Bundan shuni anglash mumkinki, til va madaniyat bir-birini uzviy to'ldirib turuvchi hodisalardir. Til madaniyatning ifodasi va merosi bo'lsa, madaniyat tilni boyituvchi va shakllantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bu o'zaro bog'liqlik insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlarini belgilaydi,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

shuningdek, jamiyatlararo muloqot va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Rossiyalik tilshunos va lingvokulturolog olim Aleksey Kibrik tilni madaniy kontekstda o'rganish kerakligini ta'kidlaydi: "Tilni alohida o'rganish kifoya qilmaydi, uning madaniy konkestda qanday ishlashini tushunish tilshunoslikning yangi bosqichi hisoblanadi". [2] Ya'ni, tilni alohida tizim sifatida o'rganish - uning grammatikasi, leksikasi va fonetikasini o'rganish - tilshunoslikning an'anaviy yondashuvidir. Biroq, til faqat grammatik qoidalar va so'zlardan iboratgina emas, u doim ma'naviy, ijtimoiy va madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, tilning haqiqiy vazifasini tushunish uchun uning madaniy kontekstda qanday ishlashini, ya'ni so'zlar va iboralarning ma'no va funksiyasini xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan bog'liq holda tahlil qilish zarur. Bu yondashuv til o'rganishda yangi bosqichni ochadi: tilshunoslikni faqat texnik fan sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida ko'rishga imkon beradi. Bu usul til o'rganish jarayonlarini yanada osonlashtiradi desak ham bo'ladi.

Muhokama.

Zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslikning nazariy va uslubiy tushunchalari V. V. Vorobyevning "Lingvokulturalogiya" monografiyasida keng yoritilgan bo'lib, muallif lingvomadaniyatshunoslikni bir necha xil jihatlarda tavsiflaydi. [3]

1. Bu sinztezlovchi tipdagi ilmiy fan, madaniyat va filologiyani o'rganuvchifanlar o'rtasidagi chegara;

2. Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy obyekti - madaniyat va tilning faoliyat ko'rsatish jarayonidagi munosabati va o'zaro ta'siri va o'zaro ta'sirning yagona tizimli yaxlitlikda talqinini o'rganish;

3. Lingvomadaniyatshunoslikning predmeti - jamiyatning madaniy qadriyatlariga asoslangan milliy shakllari, "dunyoning lisoniy manzarasi"ni tashkil etuvchi barcha narsalar;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

4. Lingvomadaniyatshunoslik tafakkur tomonidan ilgari surilgan madaniy qadriyatlarning yangi tizimiga, jamiyatning zamonaviy hayotiga, fakt va hodislarni to'liq, xolisona talqin qilishga asosiy e'tiborini qaratadi;

5. Xalq madaniyatini obyektiv, to'liq va yaxlit talqin qilish lingvomadaniyatshunoslikdan xalq madaniyatining uning tilida, dialektik o'zaro ta'siri va rivojlanishida tizimli tasvirini talab qiladi.

Vorobyevning ta'kidlashicha, lingvomadaniyatshunoslik nafaqat mavjud madaniy merosni, balki zamonaviy jamiyatda shakllanayotgan yangi madaniy qadriyatlarni ham xolisona talqin qilishni maqsad qiladi. Madaniyatning dinamik xususiyati tilning o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'lib, bu esa fan oldiga yangi vazifalar qo'yadi, ya'ni zamonaviy kommunikatsiya muhiti, ommaviy madaniyat va globallashuv ta'sirida shakllanayotgan lisoni-madaniy hodisalarni tadqiq etishdir.

E. Sapirning fikriga ko'ra, til madaniyatdan tashqarida, ya'ni "bizning turmush tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros bo'lib qolgan amaliy ko'nikma va g'oyalar majmuasi" sifatida mavjud emas. [4] Bundan shuni anglash mumkinki, inson faoliyati turlaridan biri sifatida til madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, inson hayotining turli sohalarida: ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy sohalarda inson natijalarining yig'indisi sifatida belgilanadi. Til tafakkur mavjudligining shakli va eng muhimi, muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi. Agar tilni uning tuzilishi, faoliyati va uni o'zlashtirish yo'llari (mahalliy va xorijiy) nuqtai nazaridan ko'rib chiqilsa, sotsial-madaniy qatlam yoki madaniyatning tarkibiy qismi tilning bir qismi yoki foni bo'lib chiqadi. Til madaniyatdan alohida mavjud bo'la olmaydi, chunki u jamiyatning turmush tarzi, tajribasi, qadriyatlari va ijtimoiy merosini o'zida mujassamlashtiradi. Til inson tafakkuri va muloqotini shakllantiruvchi asosiy vosita bo'lib, madaniy qadriyatlar aynan til orqali avloddan avlodga o'tadi. Shuning uchun tilning tuzilishi yoki o'zlashtirilishi madaniy kontekstsiz to'liq tushunilmaydi. Demak, til - madaniyatning tarkibiy qismi, madaniyat esa tilning ma'no manbai bo'lib, ular birgalikda insonning dunyoni idrok etish va ifodalash jarayonini tashkil qiladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Masalan, Koreya davlatida **Chuseok** - oil ava jdodlarni yod etish bayrami bo'lib u har yili kuzda nishonlanadi. Bu bayramda oila a'zolari ajdodlar ruhiga hurmat ado etish uchun uning qabri yoniga yig'iladilar va marosim o'tkazadilar. Bu jarayonni tasvirlovchi, ajdodlarga hurmat, oilaviy birlik va an'analarni bildirib turuvchi maxsus iboralar va odatlarni ishlatadilar. Bu odat har bir oilada takrorlanaverib, avloddan avlodga o'tib boraveradi.

O'zbekistonda ham bunday madaniyatni ko'rsatuvchi omillar ko'p. Navro'z bayrami qadimdan ajdodlarimizdan o'tib nishonlanib kelinadi. Bu bayramning mazmuni, qadriyatlari va marosimlari - sumalak tayyorlash, ko'klamni kutish, mehr-oqibat tuyg'ulari, bu bayramdagi turli xil o'yinlar - bular hammasi til orqali o'tadi. Til madaniyatni saqlovchi va uni keyingi avlodga yetkazuvchi asosiy ko'prik vazifasini bajaradi.

Natijalar.

Olib borilgan tadqiqot natijasida shuni anglash mumkinki, til va madaniyat ikki muhim hodisa bo'lib, ular insonning fikrlashi, dunyoqarashi va ijtimoiy hayotini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Til faqatgina aloqa vositasi emas, jamiyatning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va ma'naviy merosini o'zida mujassam etgan madaniy hodisadir. Ushbu maqolada til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar chuqur tahlil qilindi va madaniy kontekstning tilshunoslikdagi o'rni ham aniqlab olindi. Til ma'nolarini faqat grammatik yoki leksik darajada o'rganish yetarli emas; madaniy omillarni hisobga olish orqali til jarayoni yanda to'liq va aniq tushuniladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqola davomida til va madaniyat tushunchalari borasida Sapir, Varobyev, Kibrik kabi olimlarning ham fikrlari va nazariyalari tahlil qilindi va ularning hammasi til va madaniyat ajralmas, bir butun tushuncha ekanligi haqida yozib qoldirishganini guvohi bo'ldik. Demak, til nafaqat madaniyatni saqlaydi, balki uni rivojlantiradi ham. Bugungi kundagi o'zbek tilida yangi ilmiy, badiiy, publististik asarlar tarjimalari, xorijiy davlatlar bilan aloqalar o'zbek tilining imkoniyatlarini kengaytiradi, uni zamon bilan hamnafas holga keltiradi va yosh

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

avlodga tilga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Bu esa o'z-o'zidan kelajak avlodda o'zining va turli davlat madaniyatlarining ham tobora shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuriddinova D. Usmanova K. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar: madaniy kontekstning tilshunoslikdagi roli (2025) https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/issue/view/113
2. Kibrik A. E. Lingvokulturalogiya: Til va Madaniyat. Moskva. Nauka. 2002
3. Воробьев В. В. Лингвокультурология. 2008. С-32
4. Sadullayeva A. N. Til va madaniyatning lingvomadaniy aloqalari. 2023.https://www.researchgate.net/publication/367220713_Til_va_madaniyatning_lingvomadaniy_aloqalari